
ICHKI BOZORGA YANGI TURDAGI MAHSULOT TAQDIM ETILDI



Qo'shtepa tumanining "Shakar" MFY hududida tadbirkor Lutfullo Xamroboyev tomonidan suvni qadoqlash korxonasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yozning jazirama issiq kunlarida aholini toza foydali iste'mol suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish barobarida "Qiziloy water" oilaviy korxonasi qadoqlangan suvlar ichki bozorga chiqarilmoqda.

Qishloq joyida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan korxonada mahallada istiqomat qilayotgan 4 nafar "Ayollar taftari" da turuvchi xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi.

Tadbirkor Lutfullo Xamroboyev mahsulot ishlab chiqarish hajmini va turini ko'paytirib, yangi ish o'rinlari sonini yana oshirishni rejalashtirgan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-06-08 11:18:03